

VII. INTERNET TARMOG'I VA UNING TASHKIL ETILISHI.

Reja:

VII.1. Internet tarmog'i. Internetga bog'lanish usullari. Internetda manzil tushunchasi va uning turlari. Web-saytlar va ularning turlari.

VII.2. Web-sahifa va uning tuzilishi. Web brauzer dasturlari va ularning imkoniyatlari. Internet tarmog'i qidiruv tizimlari. Axborotlarni qidirish usullari.

VII.3. Internet tarmog'i qidiruv tizimlari. Axborotlarni qidirish usullari.

VII.4. Internet axborot terurslari. Giberbog'lanish. Domen tushunchasi.

VII.5. Internet xizmatlari. Mobil internet texnologiyalari.

VII.6. Elektron pochta xizmati. Pochta serverlari va mijozlar, qayd yozuvi va elektron pochta manzili.

VII.7. Talabalarning axborot madaniyatini shakllantirish.

VII.1. Internet tarmog'i. Internetga bog'lanish usullari. Internetda manzil tushunchasi va uning turlari. Web-saytlar va ularning turlari.



Internet (lotincha: *inter* –aro va *net* – tarmoq) – standart internet protokoli (IP) orqali ma'lumot almashuvchi kompyuter tarmoqlarining butunjahon va omma uchun ochiq to'plamidir. Bu ma'lumotlarning asosiy tashuvchi protokoli TCP/IP dir. TCP/IP o'zaro bog'liq protokollar yig'indisi bo'lib, internetda ma'lumot tarqalishida asosiy o'rin egallaydi. Internet tarmog'ini minglab akademik, davlat, tijorat va xonadon tarmoqlari tashkil etadi. Internet elektron pochta, chat hamda o'zaro bog'langan sahifalar va boshqa Butunjahon o'rgimchak to'ri servislaridan tashkil topadi.

Internet — katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lovchi butunjahon kompyuter tizimi. Unda geografik o'rni, zamon va makondan qat'iy nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlar o'zaro hamkorlikda global informatsiya infratuzilmasini tashkil etadi. Qaydnomalar tizimi bilan boshqariladigan barcha hosila tarmoqlar hamkorlikda iste'molchilarga ma'lumotni saqlash, e'lon qilish, jo'natish, qabul qilish, izlash va ma'lum bo'lgan barcha variantlar (matn, tovush, videotasvir, fotosurat, grafika, musiqa tarzida va b. ko'rinishlar) da axborot almashinishga imkon yaratadi.

Internet tizimi XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. O'sha paytlarda Amerika mudofaa departamenti tashabbusi bilan kompyuterlar telefon tarmoqlariga ulana boshladi. Dastlab, bunday faoliyat takomillashtirilgan loyihalar agentligi (AKRA) tadqiqotlari doirasida olib borildi. Bu tadqiqotlar sovuq urush avj olgan davrga to'g'ri keldi. AQSH mudofaa departamenti urush bo'lib qolgan taqdirda oddiy kommunikatsiya vositalari ishdan chiqqudek bo'lsa, o'rniga yangi qo'shimcha kommunikatsiya vositalarini izlash bilan faol shug'ullandi. 60-yillar oxiri va 70-yillarda Internet tarmog'i uncha keng rivojlanmadi. Dastlabki o'n yillik xalqaro tarmoq, asosan, harbiylar va yirik olimlarning shaxsiy elektron liniyalari faoliyati doirasi bilan cheklandi. Internetning beqiyos rivojlanish sur'ati davlat, ta'lim, akademik va ijtimoiy tuzilmalarning o'ziga xos umumiy moliyaviy va intellektual ulushiga bog'liq bo'ldi.

XX asr 70-yillarida turli tarqoq kompyuterlar tarmoqlari orasida informatsiyani uzatish va almashinish qoidalari tizimi ishlab chiqildi. Bular o'zaro hamkorlikka doir qaydnomalar–Internetworking protocols (IP) bo'lib, global tarmoqni takomillashtirish uchun qulay muhit yaratdi. IP o'rnatgan tartibga ko'ra, har qanday alohida tarmoq informatsiyani ko'p tarmoqlar orqali “birinchi punktdan to oxirgi punktgacha” yetib borishini nazorat qilishi lozim. Shuning uchun Internet negizini tashkil qiladigan qaydnomalar tizimi, xususan, Transmission Control Protocol (TCP), File Transfer Protocol (FTP) ichida IP muhim qaydnomalardan biri hisoblanadi.

Kompyuterlarni bir-biri bilan bog'lash. Kompyuterlar orasida ma'lumot almashish va umumiy masalalarni birgalikda yechish uchun kompyuterlarni bir-biri bilan bog'lash ehtiyoji paydo bo'ladi. Kompyuterlarni bir-biri bilan bog'lashda ikki xil usuldan foydalaniladi:

1. Kabel yordamida bog'lash. Bunda kompyuterlar bir-biri bilan koaksial, o'ralgan juftlik kabeli (UTP) yoki shisha tolali kabellar orqali maxsus tarmoq plata yordamida bog'lanadi.

2. Simsiz bog'lanish. Bunda kompyuterlar bir-biri bilan simsiz aloqa vositalar yordamida, ya'ni radio to'lqinlar, infraqizil nurlar, WiFi va Bluetooth texnologiyalari yordamida bog'lanadi.

Bir-biri bilan bog'langan kompyuterlarning bunday majmuasi kompyuter tarmog'ini tashkil etadi.

Manzil tushunchasi. Kompyuter tarmoqlarida manzil tushunchasi sifatida quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

1. Manzil kompyuter xotirasining qismlarini, kompyuter kiritish-chiqarish qurilmalari portini, hisoblash tarmog'i kompyuterlarini hamda boshqa ma'lumot manbalarini yoki ularni uzatish uchun belgilangan joyni aniqlaydi.

2. Manzil hisoblash tarmoqlarida uzatilayotgan ma'lumotni qabul qiluvchi yoki jo'natuvchilarni aniqlovchi ma'lumot ketma-ketligi.

Internetda manzil tushunchasi va Internet resurslari manzili. Sahifa, fayl yoki boshqa resursning Internetda joylashishini aniqlovchi noyob manzil – URL deb ataladi. Internetdagi manzil odatda quyidagi elementlardan tarkib topadi: resursdan foydalanish protokoli (masalan, http://, ftp://) va domen nomi (masalan, domain.uz). Internetdagi manzil, shuningdek, URL-manzil deb ham ataladi. Kompyuter domen manzilining namunaviy ko'rinishi quyidagicha: **http://www.tuit.uz; http://www.aci.uz.** Odatda, hujjatlarda manzilni anglatuvchi ma'lumotning tagiga chiziladi. Namunadan ko'rinib turibdiki, kompyuter manzili bir necha qismlardan iborat. O'ng tomondan manzilning birinchi qismi (namunada uz) domenning birinchi sathi deb qabul qilinadi, keyingisi (namunada tuit) – domenning ikkinchi sathi va hokazo. Internetda manzillar ko'p qavatli domen tizimida qurilgan. Birinchi sath domenlar umumjahon mavzular yoki geografik joylar bo'yicha nomlanadi. Saytlar nomlari quyidagicha umumiy ko'rinishda ifodalanadi:
http://www. sayt nomi. sayt soxasi. davlat kodi.

Internet ishining negizini domen (soha) nomlari tizimi (Domain Name System yoki qisqacha DNS) tashkil etadi. DNS orqali kompyuterlar bir-birlariga murojaat qila oladilar. Internetdagi biror saytga kirish uchun manzili, masalan, **www.zn.uz** kiritilad. Resurslarning internetda joylashuvini aniqlash uchun yana URL (Uniform Resource Locator – resurslarning yagona lokatori) dan foydalaniladi. DNS yordamida yozilgan va insonlarga tushunarli bo'lgan manzillar kompyuterlarga tushunarli bo'lishi uchun IP manzillarga o'tkaziladi. IP manzillar internetda kerakli kompyuterni topish uchun xizmat qiladi (buni odamlarning pochta manziliga qiyoslash mumkin). IP manzillar 8 bitli to'rtta sondan iborat, masalan, 221.25.169.7. Yuqoridagi misolda **www.zn.uz domen** (soha) nomi deb ataladi. Eng katta va umumiy domenlar nomning oxirida, o'ng tomonda ko'rsatiladi. Bizning misolda u .uz dir. Bu nom bilan Internetning O'zbekiston Respublikasiga tegishli sohasi (segmenti) belgilangan. Shunga o'xshash, Internetning kaznet segmentiga .kz, Rossiyaga tegishli runet segmentiga .ru deb nom berilgan. Har bir davlatga tegishli internet domeni o'z nomiga ega. Ulardan tashqari yana bir necha umumiy domenlar bo'lib, ular o'zlarining faoliyat turlari bilan farqlanadi. Masalan, .com (commercial yoki tijorat tashkilotlari), .edu (education – ta'lim muassasalari), .gov (government – davlat organlari), .mil (military – harbiy tashkilotlar), .net (networks companies – tarmoq va Internetga tegishli tashkilotlar), and .org (organization – boshqa tashkilotlar).

Domenlar, ya'ni internet sohalari ichma-ich joylashgan. Bunday joylashuvda katta domenlar kichiklarini o'z ichiga oladi va ularning nomlari bir-biridan “.” orqali ajratibko'rsatiladi. Yuqoridagi misol **www.zn.uz** da Ziyonet tashkilotiga tegishli .zn domeni .uz domeni ichida joylashgan **.zn** domeni ham o'z navbatida bir necha domenlarga bo'lingan, masalan uning informatia va axborot texnologiyalariga bag'ishlangan domeni ivat deb nomlanishi mumkin. U holda bu domenga **www. ivat.zn.uz** deb murojaat qilinadi. Bu domen ham o'z navbatida turli domenlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Misol uchun, bu domenda joylashgan informatika o'qituvchisi Ali Valievning veb saytiga kirish uchun bu sayt nomi **www .ali _valiyev .ivat.zn.uz** dan foydalaniladi. Bu jarayon yana davom etishi mumkin.

DNS serverlari deb ataluvchi kompyuterlar domenlar va ular nomlarida bo'layotgan o'zgarishlar uchun javob beradilar, paydo bo'lgan yangi domenlarning nomlarini o'z ro'yxatlariga kiritib qo'yadilar. Bundan tashqari, bu serverlar domen nomlarini IP manzillarga o'tkazish uchun ham xizmat qiladilar. Sizning kompyuteringiz internetga ulanganda boshqa kompyuterlarga ulana olish uchun unga ham IP manzil beriladi. Bu manzil **statik** yoki **dinamik** manzil bo'lishi mumkin. Statik manzil hech qachon o'zgarmaydi va statik manzilga ega foydalanuvchilar har gal internetga ulanganlarida shu nomga ega bo'ladilar. Lekin internetda IP manzillar soni cheklangan va statik manzillar hammaga etmaydi. Shu sababli provayderlar foydalanuvchini internetga ulash uchun dinamik manzillardan foydalanadilar. Bu manzil internetda ishlashning bir seansi uchun beriladi va keyingi safar bu manzil boshqa bo'lishi mumkin.

Sayt yoki web-sayt inglizcha website: **web** – «o'rgimchak to'ri, tarmoq» va **site** – «joy, segment, tarmoqning bir qismi» degan ma'nolarni anglatadi.

Sayt – bu bitta domen nomidan foydalanadigan, bir-biriga bog'langan web-sahifalar to'plami. Web-saytlar shaxs, guruh, korxona yoki tashkilot tomonidan turli maqsadlarda yaratilishi mumkin. Barcha ommaviy web-saytlar butun dunyodagi internet to'rini tashkil qiladi.

Oddiy qilib aytganda, sayt – bu Internetda joylashgan, ba'zi ma'lumotni (matn, video, fotosuratlar, hujjatlar, musiqa va hk) o'z ichiga olgan manzil. Internet esa ushbu manzillar to'plamidir.

Web saytlarning tuzilishi.

1. **Bosh sahifa** veb saytning birinchi sahifasidir. **Web sayt** bitta sahifadan yoki o'nlab va hatto, yuzlab sahifadan iborat bo'lishi mumkin. Oxirgi holda bosh sahifa veb saytning mundarijasi vazifasini bajaradi va veb saytdagi ma'lumotni topishni osonlashtirish uchun xizmat qiladi.

2. Bosh sahifada ajratilgan yoki ostiga chizilgan **gipermurojaatlar** joylashgan bo'ladi. Ular saytdagi boshqa sahifalarga o'tishga xizmat qiladi.

3. Serverda joylashgan va bir-biri bilan bog'langan hujjatlar birgalikda **web saytni** tashkil etadi. Bitta serverda har biri alohida sohada (alohida papkada) joylashgan ko'plab saytlar bo'lishi mumkin. Ular bitta vinchesterda ko'plab papkalar joylashgani kabi joylashishadi. Ba'zi veb saytlar juda katta bo'ladi yoki ularga har doim ko'plab murojaatlar bo'ladi. Bunday saytlarni joylash uchun bitta server etarli bo'lmaydi. Bunday hollarda bitta sayt bir necha serverlarga yoki bir necha kompyuterlardan iborat serverga joylanadi.

4. Sayt yaratishda uning har bir sahifasidan orqaga va bosh sahifaga qaytish imkoni ko'zda tutilishi kerak. Bu usul foydalanuvchi uchun juda qulay bo'lib, u sayt ichida adashib qolmaydi. Foydalanuvchi har doim bosh sahifaga qaytib, boshqa yo'nalishda sayt bo'ylab yura oladi.

Sayt — bu umumiy tushuncha bo'lib, uni ko'rinishi, bajaradigan vazifasiga qarab bir necha turlarga bo'lish mumkin.

— internet orqali tanishtiriluvchi saytlar;

— axborot resurslari;

— veb xizmatlar;

Bu turlar asosiylari hisoblanib, o'z navbatida bular ham ma'lum qismlarga bo'linadi.

Intrenet orqali tanishtiriluvchi saytlar:

— vizitka saytlari;

— korporativ saytlar;

— internet do'konlar;

— promo saytlar.

Axborot resurslari:

— tematik saytlar;

— internet portallar;

— bloglar;

— saytlar ro'yxati.

Veb xizmatlar:

— qidiruv tizimlari;


— pochta xizmatlari;

— internet forumlar;

— video, rasm, audio xostinglar;

— e'lonlar doskasi;

— ijtimoiy tarmoqlar.



Keling, endi bu sayt turlariga batafsil to'xtaylik.

Vizitka saytlari — bir shaxs yoki biror firma haqida 3, 4 ta sahifadan tashkil topgan, eng sodda ko'rinishga ega sayt. Bunday saytni tuzib berish ham unchalik katta mablag' talab qilmaydi. Firmalar bunday turdagi saytga ega bo'lishlaridan maqsad, o'zlari haqida to'liq ma'lumot berishlari, o'z xizmatlari, narxlari va bog'lanish mumkin bo'lgan ma'lumotni internet foydalanuvchilariga e'lon qilishdan iborat.

Korporativ saytlar — to'liq, murakkab ko'rinishdagi sayt. Bunday ko'rinishdagi saytlarda firma haqida to'liq ma'lumot, ularning mahsulotlari haqida(rasmlari bilan birga), narxlari beriladi. Foydalanuvchilar o'z fikrlarini qoldirishlari, sayt orqali buyurtmalar berishlari ham mumkin bo'ladi. Har xil turdagi interaktiv xizmatlar ham mavjud bo'lishi mumkin.

Internet do'konlar — internet orqali savdo sotiqni yo'lga qo'yuvchilar uchun sayt. Bizda bu yo'nalish endi rivojlanmoqda. Saytda asosan mahsulotlar, ularning narxlari, to'lovlar haqida ma'lumot bo'ladi. Asosiy sahifada yangi tovarlar rasmlari bilan berib boriladi.

Promo saytlar — ma'lum bir vaqt uchun yaratilgan saytlar. Qandaydir konferensiyalar, ko'rgazmalar, konsertlar uchun yaratilgan sayt. Bu bayramlar tugagandan so'ng, sayt yopilishi kerak, lekin ko'p hollarda unday emas, eski xabarlar bilan sayt ishlashda davom etadi. Bu e'tiborsizlik natijasidir.

Tematik saytlar — ma'lum bir kichik doiradagilar uchun sayt, bitta mavzu bo'yicha yaratiladi. Sayt dizayni aynan shu mavzuga oid bo'lishi lozim va albatta kommentariya qoldirish mumkin bo'lishi kerak. Agar iloji bo'lsa, forumi ham bo'lishi lozim.

Internet portal — katta hajmdagi sayt, boshqa saytlarga yo‘llanmalar beradi. Internet foydalanuvchilarini to‘g‘ri yo‘naltirib yuboruvchi sayt. O‘zida ko‘p miqdorda havolalar(ssilka) saqlaydi va har xil turdagi ma‘lumotni berib boradi(ob-havo ma‘lumoti, e‘lonlar, forumlar, o‘yinlar,...). Eng asosiysi sodda bo‘lishi kerak, foydalanuvchi darhol qayerga kirish kerakligini tushunib olishi lozim.

Blog — biror bir shaxsning internet kundaligi, bu yerda u biror mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozib boradi. O‘quvchilar bu fikrga o‘z qarashlarini bildirishadi.

Saytlar ro‘yxati — bunday saytlarda, boshqa saytlarning qisqacha ta‘rifi keltirilgan bo‘ladi. Shu qisqa matnni o‘qib, qiziq bo‘lsa shu saytga o‘tishni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Bu orqali saytlar o‘z darajalarini ko‘tarib olishadi. Sayt ro‘yhati ma‘lum bir bo‘limlarga bo‘lingan holda saqlanadi.

Qidiruv tizimlari — o‘z robot qidiruvlariga ega bo‘lgan sayt. Bunday saytlar barcha saytlardan ma‘lumot to‘playdi va kerakli paytda chiqarib beradi. Bularga misol qilib, Google, Yandex qidiruv tizimlarini misol qilish mumkin.

Pochta xizmatlari — internetning eng ommalashgan xizmati, elektron pochta ochish, boshqa pochta xizmatlarga xat jo‘natish va ulardan qabul qilib olish kabi vazifalarni bajaruvchi saytlar. Hozirda bunday turdagi saytlar, pochta xizmatidan tashqari boshqa xizmatlarni ham taklif qilishmoqda(qidiruv xizmatlari, fayllarni saqlash,...). Misol qilib, mail.ru, yandex.ru va boshqalarni keltirish mumkin.

Internet forum — muloqotni amalga oshirib beruvchi saytlar, bunday saytlar biror saytni alohida qismi yoki o‘zi alohida sayt bo‘lishi mumkin. Asosiy vazifa, yozish orqali muloqot qilish, biror muammoni hal etishdan iborat. Undan tashqari mahsulotlarni reklama qilishda ham qo‘l keladi.

Xosting saytlar — bunday saytlar har xil turdagi fayllarni(video, audio, rasm) o‘zida saqlaydi. Bu fayllarni foydalanuvchilar saytga kiritib qo‘yishadi va kerak paytda, internet orqali o‘z fayllarini olishlari mumkin bo‘ladi. Misol uchun, img.uz.

E‘lonlar doskasi — foydalanuvchilar tomonidan kiritilgan har xil ko‘rinishdagi e‘lonlarni chiqaruvchi saytlar. Bu saytlar biror narsani sotishda qo‘l keladi. Elektron bozor deb ham atasa bo‘ladi. Bunga misol qilib, albatta torg.uz saytni olish mumkin.


Ijtimoiy tarmoqlar — foydalanuvchilar tomonidan to‘latiladigan sayt. Bir xil dunyo qarashga ega bo‘lgan har xil guruhlar yaratish, qiziqishlarni boshqalar bilan baham ko‘rish, rasmlar qo‘yish, har xil aqlli gaplar kiritish uchun joy. Mani fikrim bo‘yicha, o‘zini reklama qilish uchun eng optimal sayt.

Bu turdagi saytlarga misollar ham shart emas shekili, mayli faqat bittasini yozaman, facebook.com.¹

VII.2. Web-sahifa va uning tuzilishi. Web brauzer dasturlari va ularning imkoniyatlari. Internet tarmogʻi qidiruv tizimlari. Axborotlarni qidirish usullari.

Web sahifa (**web-sahifa**, **web sahifa** kabi soʻzlar bilan ham qoʻllaniladi) — World Wide Webda web-resurs sifatida ishlaydigan hujjat. Web-sahifani grafik jihatdan koʻrsatish uchun veb-brauzer kerak. Bu web-sahifalarni Internetdan olish imkoniyatiga ega boʻlgan dasturiy taʼminot hisoblanadi. Agar Web-brauzer orqali kirilsa, bu monitor yoki mobil qurilmadagi web-sahifa sifatida koʻrsatilishi mumkin. Odatda web-sahifalarni boshqa web-sahifalarda koʻrib chiqish uchun *havolalar* (*linklar*) deb ataladigan gipermurojaatni oʻz ichiga olgan gipermatndan foydalaniladi.

World Wide Web (Butun olam toʻri) Internetning eng progressiv va koʻp foydalaniladigan qismidir. Siz toʻrda yurar ekansiz, undagi multimedia sahifalarini koʻrasiz. Bu sahifalar matn, rasm, ovoz va videodan tashkil topgan gipermatn koʻrinishida boʻladi. Toʻr gipermatn orasidagi bogʻlanishlardan foydalanadi va bu narsa toʻrning bir joyidan ikkinchisiga oʻtish imkonini beradi. Gipermatn koʻrinishidagi Web sahifalarni koʻrish va ular orasidagi bogʻlanishlar imkonini beradigan til **HTML – Hypertext Markup Language (Gipermatnni belgilash tili)** deb ataladi. Toʻr klient-server modeli asosida ishlaydi. Bunda kliyent kompyuterida ishlaydigan dasturiy taʼminot **Web browser (brauzer)** deb oʻqiladi va **toʻrni koʻrish darchasi**, degan maʼnoni anglatadi) deb ataladi. Server dasturiy taʼminoti toʻrning mezbon kompyuterlarida ishlaydi. Butun olam toʻridan foydalanish uchun avval kompyuterni internetga ulash va Web browserni ishga tushirish kerak.



¹ https://tourlib.net/books_tourism/shahovalov23.htm

1. Butun olam to'ri Internetning eng innovatsion va eng ko'p ishlatiladigan qismidir. To'r bo'ylab yurar ekansiz, matn, grafika ovoz va videolardan tashkil topgan sahifalarni ko'rasiz. Bir sahifadan ikkinchisiga o'tish uchun **gipermurojaatlardan** foydalaniladi. Gipermurojaatlardan foydalanish imkonini beruvchi til **HTML** – Hypertext Markup Language (gipermatnni hoshiyalash tili) deb ataladi.

2. Tarmoq kliyent-server modeli asosida ishlaydi. Klientning dasturiy ta'minoti **veb brauzer** deb ataladi. Server dasturiy ta'minoti mezbbon kompyuterda ishlaydi. Tarmoqdan foydalanish uchun avval internet bilan bog'laniladi, so'ng veb brauzer ishga tushiriladi.

3. Web brauzerda siz ko'rmoqchi b'lgan resursning **URL** ini yozasiz yoki bu resursga tegishli gipermurojaatni tanlaysiz. Resurslarning joylashgan o'rni nomlari URLlardir. Sizning veb brauzeringiz URL li talabnomani **HTTP** (Hyper Text Transfer Protocol – gipermatnni uzatish protokoli) yordamida web serverga uzatadi. Bu protokol veb brauzer va veb serverni bir-biri bilan bog'lash yo'lini aniqlaydi.

4. Veb server talab qilingan sayt, hujjat, obyekt yoki boshqa resursni qidirib topadi va uni klient kompyuteridagi veb brauzerga jo'natadi. qabul qilib olingan resurs klient kompyuteri ekranida veb brauzerda aks etadi. Shu bilan **HTTP** bog'lanish yopiladi va keyin yana qayta ochilishi mumkin.

5. HTTP yordamida veb serverga kelgan talabga ko'ra veb server qanday resurs so'ralayotgani va uning qayerda joylashganini aniqlab oladi.

6. Talabnoma Internetga jo'natiladi. Internetdagi marshrutizatorlar bu talabnoma qaysi serverga jo'natilishi kerakligini topadi. URL da **http://** dan keyingi ma'lumot resurs qaerda joylashganligini bildiradi. Unga asosan marshrutizatorlar talabnomani kerakli serverga jo'natadi.

Brauzer (ingliz tilidan “brauzer” - “ko'rib chiqish”, “aylantirish”) - bu Internetdagi tarkibni ko'rishga imkon beruvchi maxsus dastur. Bu sizga tarmoqning barcha axborot manbalariga kirishga imkon beradi. Brauzer yordamida siz rasmlarni, ovozli va videofayllarni, turli xil matnli ma'lumotni ko'rishingiz va yuklab olishingiz mumkin (elektron kitoblar, yangiliklar, jurnallar, latifalar) va boshqalar. Brauzerlarning bir nechta turlari mavjud:

1. **Buyruqlar satri brauzeri**. Bu eng “qadimiy” brauzer bo'lib, undan ozgina odamlar-Internetning birinchi foydalanuvchilari va ishlab chiquvchilari foydalanganlar. Bu manzilni buyruq satriga kiritgandan so'ng kompyuterga biron bir faylni yuklab olishga imkon berdi.

2. **Matn brauzeri**. Bugungi kunda u juda mashhur emas, ammo u hali ham ishlatiladi. Bundan tashqari, bunday dasturlar, qoida tariqasida, tezroq va

samaraliroq ishlaydi. Bunday dasturlarning o'ziga xos xususiyati shunchaki matnni multimedia vositasi holda yuklab olishdir.

3. **Multimedia brauzerlari.** (IE, Mozilla Firefox va boshqalar) - ikkala matnni va barcha multimedia obyektlarini yuklab oladigan dasturlar - rasmlar, videolar, musiqa va hk.

4. **Brauzer qo'shimchalari** - bu interfeys va keyinchalik qo'shilgan ba'zi funksiyalardan tashqari har qanday brauzer uchun deyarli bir xil bo'lgan dasturlar. Bunga Internet Explorerga asoslangan barcha brauzerlar kiradi. Ular ishlatiladigan atrof-muhit bilan uzviy bog'liq bo'lgan brauzerlar ham mavjud. Odatda ular to'liq kompyuter dasturi bilan ta'minlangan. IE (Windows), Linux (Linux) va boshqalar bunga misoldir. Bundan tashqari, brauzerlarning mobil versiyalari ham ishlab chiqilmoqda, ularni alohida guruhga ajratish mumkin.



Windows Internet Explorer -1995 yildan beri Microsoft tomonidan ishlab chiqilgan bir qator brauzerlar. Windows operatsion tizimlari bilan birga. Foydalanuvchilar soni bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi (2010 yil aprelda bozor ulushi - 59,95%, 2011 yil yanvarida - 45,99% (GlobalStats ma'lumotiga ko'ra). Rossiyada LiveInternet portalining ma'lumotiga ko'ra, 2011 yil mart oyida 27,4% bilan ikkinchi o'rinda) foydalanuvchilar, birinchi o'rinni 31,6% bilan Opera brauzeri egallaydi, garchi ushbu parametrlarni o'lchashning o'ziga xos xususiyatlari tufayli, ularning taxminiy qiymatlarini taxmin qilish mumkin .. Explorer - 1999 yildan beri eng ko'p ishlatiladigan veb-brauzer bo'lib, 2002-2003 yillarda eng yuqori ko'rsatkichga erishdi. Biroq, so'nggi paytlarda uning ulushi tez sur'atlar bilan pasayib bormoqda, bu Mozilla Firefox, Google Chrome, Safari, Opera va boshqa brauzerlarga imkoniyat yaratdi. Hozirgi kunda brauzerning so'nggi barqaror versiyasi Internet Explorer 9 hisoblanadi. Internet Explorer Mobile (Windows CE va Windows Mobile uchun), Mac uchun Internet Explorer va UNIX uchun Internet Explorer kabi boshqa operatsion tizimlar uchun. bepul yuklab olish mumkin va u Microsoft Windows-ning noqonuniy nusxasiga o'rnatilganda ham ishlaydi, ammo litsenziya shartnomasi Internet Explorer-ni faqat Windows oilasining operatsion tizimi uchun qonuniy litsenziyasi bilan o'rnatishga imkon beradi.

Mozilla Firefox bu Mozilla Corporation tomonidan ishlab chiqilgan va tarqatiladigan Mozilla Application Suite-ning bir qismi bo'lgan bepul brauzer.

Dunyodagi eng mashhur ikkinchi brauzer va bepul dasturiy ta'minot orasida birinchi - 2012 yil yanvar oyida uning bozordagi ulushi 24,78% ni tashkil etdi. Ba'zi mamlakatlarda, xususan Germaniya va Polshada brauzer ma'lum muvaffaqiyatlarga ega - bu eng mashhur brauzer bo'lib, uning ulushi mos ravishda 55% va 47% ni tashkil qiladi. Rossiyada Firefox 2011 yil iyul oyiga kelib foydalanuvchilarning 30,74% ulushiga ega bo'lgan ish stoli brauzerlari orasida birinchi o'rinda. Brauzerda ko'plab tablarga ega interfeys mavjud, imlo tekshiruvi, terayotganingizda qidiruv, "jonli xatcho'plar", yuklab olish menejeri, qidiruv tizimlari bilan bog'lanish maydoni mavjud. Microsoft Windows, Mac OS X va Linux uchun rasmiy ravishda chiqarilgan yangi xususiyatlar kengaytmalar yordamida qo'shilishi mumkin. Norasmiy qurishlar FreeBSD, BeOS va boshqa Unixga o'xshash operatsion tizimlarda mavjud. Brauzer kodi ochiq va uch karra GPL / LGPL / MPL litsenziyasi bo'yicha tarqatiladi.

Opera - Opera Software tomonidan ishlab chiqarilgan veb-brauzer va Internet uchun dasturiy ta'minot to'plami. 1994 yilda Norvegiyaning Telenor kompaniyasining bir guruh tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan. 1995 yildan beri birinchi versiya mualliflari tomonidan yaratilgan Opera Software mahsuloti. Opera va Opera Mobile-ning umumiy bozordagi ulushi 2011 yil iyun oyida 2,98% ni tashkil etdi. Bundan tashqari, Opera Mini 1,25 foiz ulushga ega edi. Rossiyada brauzer foydalanuvchilari foizi dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqori. 2011 yil iyunda Opera Mini bilan birgalikda 37,4% foydalanuvchilar bilan Rossiyada mashhurlik bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. Brauzer C++ dasturlash tilida yozilgan, yuqori tezlikka ega va yirik veb-texnologiyalarga mos keladi. Uzoq vaqt davomida Operaning o'ziga xos xususiyatlari ko'p sahifali interfeys (dastur oynasida yorliqlar tizimi) va namoyish etilgan hujjatlarni grafika bilan bir qatorda to'liq miqyoslash qobiliyati edi; ushbu xususiyatlar boshqa brauzerlarda joriy etilgan. Opera sichqonchani ishlatish funksiyasini kengaytirdi: standart navigatsiya usullariga qo'shimcha ravishda "sichqonchani imo-ishoralari" deb nomlangan usul taqdim etiladi. Brauzer xavfsizlik tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: phishing-dan himoyalangan ichki himoya; maxfiy ma'lumotni olish uchun so'rovlarni o'z ichiga olgan sahifalar bilan ishlashda ma'lumot oqimining qo'shimcha kodlanishi; HTTP-cookie-fayllarni o'chirish, sichqonchani bir marta bosish bilan ko'rib chiqish tarixini tozalash, shuningdek "Tez terish" boshlash paneli.

Google Chrom bepul brauzer asosida Google tomonidan ishlab chiqilgan va veb-sahifalarni namoyish qilish uchun WebKit mexanizmidan foydalanadigan brauzer. Microsoft Windows uchun birinchi ommaviy beta-versiyasi 2008-yil 2-sentabrda, birinchi barqaror versiyasi-2008-yil 11-dekabrda chiqarilgan. StatCounter ma'lumotiga ko'ra, brauzer mashhurligi bo'yicha

ikkinchi o'rinda turadi va 2012 yil fevral holatiga ko'ra uning bozordagi ulushi 29,5%, xavfsizlik, tezlik va barqarorlikni oshirishga qaratilgan. 2009 yil 9 iyunda Google Chrome ishlab chiquvchilari norasmiy foydalanuvchilar hamjamiyatiga bergan intervyusida strategiyani bayon qildi. keyingi rivojlanish uning mahsuloti bo'lib, brauzer eng yuqori ish tezligiga va minimal ruxsat etilgan funktsiyaga ega bo'lishi va barcha qo'shimcha funktsiyalarni kengaytmalar yordamida amalga oshirish rejalashtirilgan.

Safari - Apple tomonidan ishlab chiqilgan va Mac OS X operatsion tizimiga kiritilgan brauzer, shuningdek Microsoft Windows operatsion tizimlari uchun bepul. Foydalanuvchilar soni bo'yicha to'rtinchi o'rinda (2011 yil noyabrda bozor ulushi - 6,66%) WebKit dvigatelining bepul kodi asosida. Ushbu brauzer Applening Microsoft bilan Macintosh platformasi uchun Internet Explorerni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi shartnomasi muddati tugashi bilan yaratilgan. Safarini ishga tushirgandan ko'p o'tmay, Mac uchun Internet Explorerda ishlash to'xtatildi.

Axborot hayotimizda muhim ahamiyatga ega ekan, uni Internetdan kerakli vaqtda, zarur miqdorda, qisqa vaqt ichida olib turishimiz kerak bo'ladi. Lekin, Internetdan axborotni qisqa vaqt ichida olish muammosi ham bor. Bu darsda shu muammoni hal etish usullaridan birini ko'rib²chiqamiz.

VII.3. Internet tarmog'i qidiruv tizimlari. Axborotlarni qidirish usullari.



Qidiruv tushunchasi. Internet tarmog'idagi qidiruv tushunchasi shuni anglatadiki, bunda har bir foydalanuvchi o'ziga kerakli bo'lgan biror ma'lumot yoki materialni maxsus qidiruv tizimlari orqali topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Internet - bepoyon axborot ummoni. Axborotlar Internetda millionlab Web-sahifalarda saqlanadi. Bizga kerakli axborot saqlanadigan Web-sahifani topish uchun uning Internetdagi adresini bilish zarur. Ammo internet soat sayin yangi axborotlar bilan boyib boradi. Shuningdek, ba'zi (eskirgan) axborotlar Internet tarmog'idan chiqarib tashlanadi. Internetdagi ko'p foydalaniladigan Web-sahifalar adreslari maxsus ma'lumotnomalarda chop etib turiladi. Lekin ulardan to'liq axborot olib bo'lmaydi. Chunki Internetdagi barcha Web-sahifalar adreslarini chop etish uchun juda katta hajmli kitob kerak bo'ladi. Bu kitob chop etib tugatilmasidan Internetdagi bir qancha adreslar o'zgarishi aniq. Bu muammo maxsus Qidiruv tizimlari yaratilishi bilan osonlikcha hal etildi.

² <https://infourok.ru/ilmiy-va-o-quv-uslubiy-faoliyatda-axborot-texnologiyalari-5437040.html>

Internet tarmog‘i foydalanuvchilari qidiruvni Internet muhitida joylashgan veb-saytlar, ularning manzili va ichki ma’lumoti bo‘yicha olib borishi mumkin. Bu esa foydalanuvchiga kerakli bo‘lgan axborotni samarali qidirish va tez topish imkoniyatini beradi.

Axborotlarni qidirish. Internet tarmog‘i shunday bir muhitki u o‘zida turli ko‘rinishdagi va turli tillardagi ko‘plab axborotlarni jamlagan. Bunda ushbu axborotlar ichidan kerakli bo‘lgan ma’lumotni qidirib topish muammasi paydo bo‘ladi. Internet tarmog‘ida har bir foydalanuvchi axborotni qidirish uchun o‘zbek, rus, ingliz yoki boshqa tillardagi bir yoki bir necha so‘zdan tashkil topgan so‘rovlardan foydalanadi. Ya’ni ma’lumotni uning sarlavhasi yoki uning tarkibida ishtirok etgan so‘zlar va jumlar bo‘yicha qidirib topish mumkin. Bunda foydalauvchi tomonidan Internet qidiruv tizimi qidiruv maydoniga kerakli ma’lumotga doir so‘z yoki jumla kiritiladi va qidiruv tizimi ishga tushiriladi. Shundan so‘ng qidiruv tizimi foydalanuvchiga ³o‘zi tomonidan kiritilgan so‘z yoki jumlagi mos keluvchi ma’lumotni qidirib topadi va kompyuter ekranida ularning ro‘yxatini hosil qiladi. Va nihoyat ro‘yxatdagi ma’lumotni ketma-ket ko‘rib chiqilib kerakli bo‘lganlari kompyuterga saqlab olinadi.


Axborotlarni parametrlari bo‘yicha qidirish. Ko‘rib o‘tilganidek, har bir foydalanuvchi Internet tarmog‘i orqali o‘ziga kerakli bo‘lgan ma’lumotni uning mavzusi hamda tarkibidagi so‘z yoki jumla bo‘yicha qidirib topishi mumkin, lekin Internet tarmog‘ida ma’lumot shunchalik ko‘pki, ta’kidlab o‘tilgan usul samara bermasligi mumkin. Bunday hollarda Internet qidiruv tizimlari qidiruvning bir qancha qo‘shimcha usullari bo‘yicha qidiruvni taqdim etadi, bular:

- ma’lumotni uning tili bo‘yicha qidiruv;
- ma’lumotni uning turi (matn, rasm, musiqa, video) bo‘yicha qidiruv;
- ma’lumotni uning joylashgan mintaqasi bo‘yicha qidiruv;
- ma’lumotni uning joylashtirilgan sanasi bo‘yicha qidiruv;
- ma’lumotni uning joylashgan Internet zonasi bo‘yicha qidiruv;
- ma’lumotni xavfsiz qidiruv.

Rasmlarni qidirish. Rasmlar ma’lumotning grafik yoki tasvir ko‘rinishi hisoblanadi. Internet tarmog‘ida grafik ma’lumotning ko‘plab turlari uchraydi, ya’ni: chizma (vektor), foto (rastr), harakatlanuvchi (animatsiya) hamda siqilgan rasmlar. Bunday grafik ma’lumot tarkibida matnli axborot mavjud bo‘lmaydi. Shundan ko‘rinib turibdiki, demak rasm ko‘rinishidagi ma’lumot ustida faqatgina uning nomi yoki turi bo‘yicha qidiruv olib borish mumkin. Ko‘pgina

³ <https://infourok.ru/ilmiy-va-o-quv-uslubiy-faoliyatda-axborot-texnologiyalari-5437040.html>

internet qidiruv tizimlari grafik yoki tasvir ko‘rinishidagi ma’lumotni qidirish uchun alohida bo‘limga ega bo‘lib, bu bo‘lim orqali ixtiyoriy turdagi rasmlarni ularning nomlari bo‘yicha qidiruvni amalga oshirish mumkin. Masalan, quyidagi rasmga shunday qidiruv tizimlarining biri tasvirlangan⁴.



Musiqalarni va filmlarni qidirish. Internet tamog‘ida matnli yoki rasm ko‘rinishidagi ma’lumotdan tashqari musiqa va video ma’lumotning ham ko‘plab manbalari mavjud. Internet tarmog‘i orqali har bir foydalanuvchi musiqa eshitishi, radio tinglashi, teledasturlar yoki videofilmlarni tomosha qilishi mumkin. Internet orqali radioeshittirish va teledasturlar namoyishi ma’lum, ushbu turdagi xizmatlarni taqdim etuvchi tizimlar (serverlar) tomonidan amalga oshiriladi. Internet orqali radio tinglash yoki teleko‘rsatuvni tomosha qilish uchun ushbu tizimga bog‘lanishni o‘zi kifoyadir. Ammo musiqa va filmlar Internet tarmog‘iga ulangan kompyuterlarda alohida material ko‘rinishida saqlanadi. Ularni tinglash, tomosha qilish yoki kompyuterga ko‘chirib olish uchun avvalo kerakligini qidirib topish zarur. Musiqa va video materiallari ustida ham grafik (rasm) materiallar kabi uning nomi yoki izohi bo‘yicha qidiruv olib borish mumkin. Bunda musiqa va filmlarni qidirib topish uchun qidiruv tizimi maydoniga materialning nomi yoki uning izohiga taaluqli biror jumla kiritiladi va qidiruv tizimi ishga tushiriladi. Shundan so‘ng qidiruv tizimi tomonidan kiritilgan jumlagam mos keluvchi musiqa va video materiallar joylashgan veb-saytlarning ro‘yhati shakllantiriladi. Ro‘yxatdagi veb-saytlar foydalanuvchi tomonidan birin – ketin ko‘rib chiqiladi va kerakli materiallar kompyuterga saqlab olinadi.

⁴ <https://infourok.ru/ilmiy-va-o-quv-uslubiy-faoliyatda-axborot-texnologiyalari-5437040.html>

VII.4. Internet axborot terurslari. Giberbog‘lanish. Domen tushunchasi.



WWW.UZ Milliy axborot-qidiruv tizimi. WWW.UZ – bu barcha foydalanuvchilar uchun yurtimizning Internet tarmog‘idagi milliy segmenti axborotlaridan qulay tarzda foydalanish imkoniyatini beruvchi tizimdir. Milliy axborot-qidiruv tizimini rivojlantirish ishlari axborot va kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish UZINFOCOM Markazi tomonidan olib boriladi. Milliy axborot-qidiruv tizimining asosiy hususiyatlaridan biri uning ko‘p tilli axborot qidiruvi (ruscha, o‘zbekcha) va boshqa milliy axborot tizimlari va ma‘lumot omborlari bilan o‘zaro ishlay olishidadir. WWW.UZ Internet tarmog‘i foydalanuvchilariga milliy sigmentda joylashgan veb-saytlar bo‘yicha qidiruv xizmatini taqdim etadi va qidiruvni veb-sayt manzili va ichki ma‘lumoti bo‘yicha olib borishi mumkin. Bu esa foydalanuvchiga kerakli bo‘lgan axborotni samarali qidirish va topish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari Shu WWW.UZ qidiruv tizimi Internet resurslari (veb-saytlari) katalogini va veb-saytlar reytingi yuritadi, saytlar bo‘yicha jamlangan statistik ma‘lumotni to‘playdi hamda axborot texnologiyaari sohasidagi yangiliklar va maqolalarni yoritib boradi. WWW.UZ “Katalog” bo‘limi – Internet tarmog‘ida ochiq holda joylashgan, O‘zbekiston Respublikasiga aloqador bo‘lgan, ro‘yxatga olingan, izohlari keltirilgan va katalog mavzulari bo‘yicha saralangan veb-saytlar to‘plami. WWW.UZ katalogi foydalanuvchilari o‘zlariga kerak bo‘lgan saytni mavzular bo‘yicha (Iqtisod, OAV, Madaniyat va boshqalar) qidirish orqali tezroq topishlari mumkin. Katalog har kuni qidiruv tizimining faol foydalanuvchilari tomonidan yangi saytlar bilan boyitib boriladi. Shu bilan birga WWW.UZning har bir foydalanuvchisi “Top-reyting”⁵ bo‘limiga kirib, barcha ro‘yxatga olingan saytlar reytingini ko‘rishi, “Jamlangan statistika” bo‘limida esa ularning statistikasi bilan tanishib chiqishi mumkin.

Butunjahon tarmog‘i. Internetdagi yuz millionlab veb-serverlar bo‘lib, ular gipermatnli texnologiyalardan foydalanadigan yuzlab milliard veb-sahifalarni o‘z ichiga oladi. Veb-sahifa bo‘lishi mumkin **multimedia**, ya‘ni tarkibida turli xil multimedia ob‘ektlari bo‘lishi mumkin: grafikalar, animatsiya, ovoz va video.

Veb-sahifa bo‘lishi mumkin **interfaol**, ya‘ni bepul elektron pochta foydalanuvchilarini ro‘yxatdan o‘tkazishda, Internet-do‘konlarda xarid qilishda va hokazolarda ishlatiladigan maydonlarga ega shakllarni o‘z ichiga oladi. Tematik jihatdan bog‘liq bo‘lgan veb-sahifalar odatda shaklda bo‘ladi **Veb-sayt**, ya‘ni havolalar orqali bir butunga bog‘langan hujjatlarning ajralmas tizimi.

⁵ <https://infourok.ru/ilmiy-va-o-quv-uslubiy-faoliyatda-axborot-texnologiyalari-5437040.html>

Veb-sahifaning manzili. Hozirda Internetning veb-serverlarida ko‘plab veb-sahifalar joylashtirilgan. Veb-sahifa manzilidan foydalanib Internetda veb-sahifani topishingiz mumkin. Veb-sahifaning manzili hujjatga kirish usuli va hujjat joylashtirilgan Internet-server nomini o‘z ichiga oladi. Hyper Text Transfer Protocol (HTTP) veb-sahifalarga kirish usuli sifatida ishlatiladi. Protokolni yozishda uning nomidan keyin ikki nuqta va ikkita kesma yoziladi: http://. Misol tariqasida, Ziyonet axborot ta’lim portali-saytining sarlavha sahifasini yozamiz. Sahifa ziyonet.uz serverida joylashgan, shuning uchun manzil quyidagi shaklga ega: http://ziyonet.uz

Brauzerlar. Veb-sahifalarni ko‘rib chiqish maxsus tomoshabinlar - brauzerlar yordamida amalga oshiriladi. Hozirda Internet Explorer, Mozilla va Opera brauzerlari eng keng tarqalgan. Brauzer oynasi dastur oynasining standart elementlarini o‘z ichiga oladi:

- buyruqlar to‘plamini o‘z ichiga olgan oyna menyusi *Fayl, tahrirlash, ko‘rish, sevimlilar, xizmat va ma’lumotnoma*;
- tugmachalari bitta veb-sahifadan boshqasiga o‘tishga imkon beradigan asboblarning paneli (tugmalar) *Oldinga, orqaga, uyga*, shuningdek ularni yuklash jarayonini boshqarish (tugmalar) *To‘xtang, yangilang*;
- matn maydoni *Manzil*:, kerakli veb-sahifaning Internet manzili klaviaturadan kiritiladi yoki ro‘yxatdan tanlanadi;
- web-sahifalar ko‘riladigan ish maydoni.

Giperbog‘lanish gipermatn texnologiyasining asosi. WWW sahifasida ma’lumot gipermatnli hujjatlar shaklida olinadi. Gipermatn boshqa matnli hujjatlarga yo‘l ko‘rsatuvchi matndir. Bu esa boshqa matnlarga (bu matnlar qaysi

mamlakatning serverida turishidan qat’iy nazar) tezda o‘tish va yuklanish imkonini

beradi. Odatda ixtiyoriy matn simvollarning uzun bir qatordan iborat bo‘lib, u bir yo‘nalishda o‘qiladi.

Gipermatn texnologiyasi matnni ko‘p o‘lchamli shaklda tasvirlashdan iborat, ya’ni tarmoq tipidagi iyerarxik tuzilmadir. Matn ko‘rinishdagi material bo‘laklarga (parchalarga) bo‘linadi. Kompyuter ekranida ko‘rinadigan matinning har bir bo‘lagi boshqa bo‘laklar bilan ko‘p sonli bog‘lanishlar orqali bog‘langan bo‘lib, u o‘rganilayotgan ob’ekt haqidagi axborotni aniqlashtirish imkoniyatini beradi va tanlangan bog‘lanishlar bo‘yicha bir yoki bir necha yo‘nalishda harakat qiladi. Gipermatn bo‘laklarga bo‘lingan materialni nochiziqli tarmoq shaklda tashkil qilishga ega bo‘lib, ularning har biri uchun bog‘lanishlarning ma’lum turi bo‘yicha boshqa bo‘laklarga o‘tishlar ko‘rsatilgan. Bog‘lanishlarni (aloqalarni) o‘rnatishda turli

asoslarga (kalitlarga) tayanish mumkin, ammo har qanday holda gap faqat bog‘lanayogan bo‘laklar ma‘nosining, semantikasining yaqinligi haqida boradi. Ko‘rsatilgan bog‘lanishlar izidan borib, materialni o‘qish yoki o‘zlashtirish tartibi yagona emas, balki ixtiyoriy tartibda bo‘lishi mumkin. Matn o‘zining yopiqqligini yo‘qotib, prinsipial ochiq holda bo‘lad.i Gipermatnnga uning bo‘laklari uchun mavjud bog‘lanishlarni ko‘rsatib yangi bo‘laklarni qo‘yish mumkin. Matnning strukturasi buzulmaydi, chunki gipertekstning aprior berilgan strukturasi umuman yo‘q.Shunday qilib, gipermatn –bu strukturalashtirilmay erkin jamlangan bilimlarni taqdim qilishning yangi texnologiyasi. U shu bilan axborotlarni taqdim etishning (tavirlashning) boshqa modellaridan farq qiladi.

Gipermatn deganda tarmoq tashkil etuvchi hamda o‘zaro birbiriga yo‘naltirilgan bog‘lanishlarni birlashtiruvchi axborot ob‘ektlarining (bo‘limlarining) tizimini tushunadilar.Har bir ob‘ekt ekranning axborot paneli bilan bog‘lab qo‘yiladi. Bog‘lanishlardan birini foydalanuvchi panelidan assotsiatv ravishda tanlashi mumkin. Obyektlar albatta matnlardan iborat bo‘lishi shart emas, ular grafik, musiqa, multiplikatsiya, audio va videotexnika vositalarini ishlatgan bo‘lishi mumkin.

Gipermatnlarga ishlov berish, odatdagidan sifati bilan farq qiluvchi, axborotni o‘zlashtirishning yangi imkoniyatlarini ochib berdi.Gipermatn texnologiyasi qidiruv kalitining mosligi bo‘yicha axborotni qidirish o‘rniga bir axborot ob‘ektidan boshqasiga o‘tish ular ma‘nosining, semantikasining bog‘liqligini hisobga olish bilan bajarilishini nazarda tutadi. Gipermatn texnologiyasida formal xulosalar qoidasi bo‘yicha axborotlarga ishlov berish gipermatn bo‘yicha yurish yo‘lini yodda saqlashga mos keladi. Gipermatn texnologiyasi odam o‘rniga axborotlarga ishlov berishga emas odam bilan birga ishlov berishga qaratilgan.Undan foydalanishning qulayligi shunda iboratki, foydalanuvchining o‘zi materialni o‘rganishga yoki yaratishga bo‘lgan yondoshuvni o‘zining individual qobiliyatini bilimini, kvalifikatsiya va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan olda aniqlaydi. Gipermatn faqat axborotni emas, balki uni samarali qidiruv vositalarini ham o‘z ichiga oladi.

Gipermatnli xujjatlarning asosiy ajralib turadigan qismi, bu hujjatlarga qo‘yiladigan giperizohlardir. Giperizohlar “jonli” ravishda namoyon bo‘ladi. Ya’ni oddiy matnlarga qo‘yilgan, masalan, qo‘yidagicha izoh “qo‘shimcha ma’lumotni ikkinchi varaqdan olasiz” kabi izohda, siz uni ikkinchi varaqqa o‘tsangiz olasiz.

Gipermatnlarda esa o'sha izohlarning o'zi ham harakatlanadi. HTML tili buyruqlarni o'z ichiga oladi. Boshqa hujjatlarga yo'l ko'rsatuvchi va olib boruvchi giperizohlar ham gipermatnli aloqalarning asosiy qismi hisoblanadi. Giperaloqalar faqat kalitli so'zlar orqaligina bo'lmay, balki turli obyektlar, hatto rasmlarning bo'laklari orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Domen – bu cheksiz internet ummonidagi serverlardan birida joylashgan qaysidir saytga olib boradigan manzil hisoblanadi. Aslida Siz hosting xizmatidan foydalanib, saytingizni qaysidir serverga joylashtirganingizda, saytingiz manzili (server nuqta'i nazaridan) qandaydir IP manzilga teng bo'ladi. Masalan, 192.168.162.134 Bunday IP manzilni eslab qolish qiyin. Agar domen bo'lmaganida saytingizga tashrif buyurish uchun foydalanuvchilar saytingiz IP manzilini eslab qolishlari va brauzerlariga 192.168.162.134 deb yozish orqali saytingizga kirishlari kerak bo'lar edi. Domen afzalligi shundaki, u tushunarsiz va eslab qolish qiyin bo'lgan IP manzillarni odamlarga tushunarli, eslab qolish oson bo'lgan chiroyli sayt nomlari aylantiradi. Shuning uchun ham domen sotib olganingizda eng avvalo bu domenni hostingingiz IP manziliga ulab qo'yasiz. Shunda domen nomi saytingiz IP manzilining tarjimasi bo'lib qoladi. Har safar foydalanuvchilar o'z brauzerlarida domen nomingizni yozishsa, bu domen hostingingiz serverining IP manzilini chaqiradi va foydalanuvchiga saytingiz ko'rsatiladi. Misol uchun, qalam.uz sayti hostingining sayt joylashgan qismi uchun IP manzili 192.168.111.222 deb hisoblaylik. Bu saytga kirish uchun foydalanuvchilarning bu IP manzilni yozishlari ularga qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Bu o'rinda foydalanuvchilar uchun eslab qolish oson va tushunarli bo'lgan domen tanlanadi. Sayt esa quyidagi tartibda ularga yetkaziladi: Qalam.uz -> 192.168.111.222 -> SAYT Domen ismlarda "domen hududi" degan tushuncha mavjud. Bu hududlar saytlarning u yoki bu turga ta'luqli ekanligini ko'rsatib turadi. Hozirgi kunda eng mashxur domen ism hududlariga .com (kommersiya-tijorat saytlari), .net (internet), .info (informatsiya-ma'lumot saytlari), .yedu (education-ta'lim sohasiga oid saytlar), .org (organisation-tashkilot saytlari), .gov (government-hukumat saytlari) va boshqa davlat kodi yuqori bosqichli domenlar (country code top-level domains – **ccTLD**) kiradi.

ccTLD domenlari qaysidir davlat nomi qisqarmasiga asoslangan domen hududlariga bo'linadi. Masalan, O'zbekiston uchun .uz domenlari, Rossiya uchun .ru domenlari, Fransiya uchun .fr domenlari va hokazo. Har bir domen hududini o'ziga tegishli bo'lgan davlat boshqaradi. Misol uchun, .uz domenlariga O'zbekistondan boshqa hech qaysi davlat ro'yxatdan o'tkazish huquqiga ega bo'la olmaydi. Domen ismlar domen registratorlari orqali amalga oshiriladi. Har bir domen nomi faqat bir marta ro'yxatga olinishi mumkin va uning nusxalari bo'lishi

mumkin emas. Masalan, siz korzonangiz sayti uchun esavdo.uz deb nom tanladingiz, Bu domenni sotib olganingizdan keyin (kelishilgan muddat davomida) boshqa hech kim bu nomga egalik qilolmaydi. U yoki bu domenning bandligi yoki ro'yxatga olinish uchun bo'shligini tekshirish domen registratorlarining whois so'rovi yordamida tekshirilishi mumkin. O'zbekiston domen registratorlari boshlig'i **ccTLD.uz** hisoblanadi. Bu saytga www.cctld.uz yoki oddiygina www.whois.uz domeni orqali kirish mumkin. **ccTLD.uz** saytiga tashrif buyurib Siz O'zbekiston domen registratorlari haqida ma'lumot olishingiz va saytning chap tomon menyudan pastki qismida joylashgan kichik forma orqali qaysidir domenning bo'shligi yoki bandligini tekshirishingiz mumkin. Domen nomi ro'yxatga olingandan so'ng Siz uning sozlanmalarini saytingiz joylashgan hosting IP manziliga (ular "nameserver" deb yuritiladi) mos ravishda tahrirlashingiz kerak bo'ladi. Shundan so'ng 24 soat ichida domeningiz ko'rsatilgan nameserver'da joylashgan saytingizga olib borishni boshlaydi.

VII.5. Internet xizmatlari. Mobil internet texnologiyalari.



Internet xizmat turlari. Internet, avvalambor, uning foydalanuvchilariga axborot xizmati ko'rsatish uchun yaratilgandir. Umuman olganda, internet xizmat turlari nihoyatda ko'p va xilma-xil bo'lib (yangi xizmat turlari kun sayin paydo bo'lib, ba'zilar yo'qolmoqda), ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- WWW - elektron sahifa xizmati;
- elektron pochta xizmati;
- telekonferensiya (Usenet);
- fayllarni uzatish (FTP);
- slujba imen domen (DNS) (tarmoq hududlariga nom berish xizmati);
- Telnet xizmati;
- IRC
- xizmati yoki Chat konferesiya;
- Ma'lumotni izlash xizmati

Mobil aloqa xizmatlari: so'zlashuv, mobil internet va pochta. Mobil aloqa xizmatlari – mobil aloqa vositalari yordamida abonentlarning so'zlashuvi, mobil internet va pochta xizmatlari amalga oshiriladi. So'zlashuv – telefon raqami terilganda joriy mobil operator tayanch stansiyaning antenasi chaqirayotgan va chaqirilayotgan abonentlarni aniqlaydi. Shundan so'ng ushbu axborot uzib

ulagichga (kommutator) yuborilib ikkita abonent bog‘lanadi va ushbu abonentlar orasida so‘zlashuv (ma’lumot almashinish) amalga oshiriladi. Ya’ni ikkita harakatlanuvchi abonentning mobil telefonlar orqali o‘zaro muloqoti - so‘zlashuvdir.

Mobil Internet – harakatdagi abonentlar uchun mobil aloqa tarmoqlari orqali Internet resurslaridan foydalanish texnologiyasi. Mobil aloqa tarmoqlarida so‘rovlar va so‘zlashish ma’lumoti axborotlarning paketli ko‘rinishida uzatiladi. Bunda yuqori darajali xizmatni amalga oshirish, ayniqsa biznesni samarali boshqarish imkoniyati yaratiladi. Mobil Internetning qulayligi shundan iboratki, bunda foydalanuvchining qayerda va qanday holatda bo‘lishidan qat’iy nazar u mobil aloqa tarmog‘i orqali Internet xizmatlaridan foydalanishi imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mobil Internet xizmatidan foydalanish uchun maxsus simsiz modem qurilmasi yoki ushbu xizmat yoqtirilgan mobil telefon bo‘lishi kerak.

Mobil pochta -Internet resurslaridan foydalangan holda abonentning mobil telefoni orqali shaxsiy elektron pochta xizmatidan foydalanish imkoniyati. Bunda Internet tarmog‘i yordamida oddiy elektron pochta xizmatidan foydalanish kabi mobil telefonlar yoki boshqa mobil aloqa vositalari orqali ixtiyoriy vaqtda ixtiyoriy joyda elektron pochta xizmatidan foydalanish, ya’ni pochta xabarlarini olish, o‘qish va javob yo‘llash mumkin.



Mobil aloqa vositalari: Smartphone, iphone va planshetlar. Hozirgi kunda mobil telefonlarning va boshqa mobil aloqa vositalarining shunaqa turlari ishlab chiqarilmoqda-ki, bular vazifalari jihatidan personal kompyuterdan qolishmaydi. Bunday mobil aloqa vositalari yordamida hujjatlar bilan ishlash, musiqa tinglash, videoklip tomosha qilish, o‘yinlar o‘ynash, hatto radioeshittirish va televideniedan ham bahramand bo‘lish mumkin.

Smartfon (*smartphone*) inglizchadan tarjima qilinganda “aqlli telefon” ma’nosini anglatadi. Funksionalligi jihatidan cho‘ntak shaxsiy kompyuteriga yaqin bo‘lgan mobil telefon. Bunda cho‘ntak kompyuterining barcha vazifalari mujassamlangan.

iPhone - to‘rt diapazonli multimediyali smartfonlar lineykasi. iPhone o‘zida telefonning asosiy vazifalaridan tashqari kommunikator va internet planshetlarning asosiy funksiyalarini ham qamrab olgan. Internet planshetlar – bu maxsus mobil qurilma bo‘lib, shaxsiy kompyuterning klassik namunasi.

Planshetlar (masalan iPad) tashqi ko‘rinish jihatidan kompyuterdan butunlay farq qiladi. Planshetlar faqatgina ekrandan tashkil topgan bo‘lib, boshqa qo‘shimcha qurilmalar (sichqoncha, klaviatura) virtual ko‘rinishda tashkil etilgan. Planshetlar to‘liqligicha mobil aloqa muhiti orqali Internet xizmatlaridan foydalanishga va hujjatlar bilan ishlashga ixtisoslashgan.

VII.6. Elektron pochta xizmati. Pochta serverlari va mijozlar, qayd yozuvi va elektron pochta manzili.

Elektron pochta (e-mail) — ma’lumotlarni uzatish tarmog‘i orqali axborotlarni bir foydalanuvchi elektron qutisidan boshqasiniqiga jo‘natish, qabul qilish va ma’lum vaqtgacha saqlanishini ta’minlovchi dasturiy texnik vositalar to‘plami. E-Mail axborotlarni tarmoqning bir punktidan boshqasiga tezkor uzatishni ta’minlaydi. E-Mailda maxsus shlyuzlar orqali har xil elektron axborot tizimlari vositasida axborotlar dunyoning istalgan burchagiga uzatiladi. E-Maildan uzluksiz ravishda yoki ma’lum vaqt (seans)larda foydalanish mumkin. E-Mail 20-asrning 60- yillarida “katta” hisoblash mashinalarida “ko‘p foydalanuvchilar tartibi” dasturining ishlatilishidan boshlangan. 1989 yilda birinchi marta tijorat pochta xizmatlari bilan internet o‘rtasida aloqa o‘rnatildi.⁶

O‘zbekiston hududida E-Mail xizmati 1990—91 yillarda ma’lumot uzatish tarmog‘i operatorlari tomonidan taqsim etila boshlandi. 1997 yilda Toshkent pochta korxonasida “Kelsot” tarmog‘i orqali E-Mail xizmatlari punkti ishga tushirildi. Hozir O‘zbekistonda fuqarolar, korxonalar, xonadonlar internet tizimiga ulangan kompyuterlar va “Internet kafe”lar orqali E-Maildan foydalanadilar. Internetga chiqish imkoniyati bo‘lmagan mijozlar uchun “O‘zbekiston pochta” aksiyadorlik tarmog‘i orqali E-Mail va gibrid pochta (pochtani qabul qilish, ishlov berish va yetkazish jarayonida E-Mail va an’anaviy pochta resurslari ishlatiladi) xizmatlarini yo‘lga qo‘yish ishlari olib

⁶ N.R.Zaynalov. Turizm axborot texnologiyalari. (0 ‘quv qo‘llanma). -T.: «Voriz-nashriyoti», 2017, 584 bet.

borilmoqda. Gibrid pochta orqali korxona, tashkilotlar va o'quv muassasalaridan olingan axborot, xabar, reklama, taklifnoma, chaqiruv qog'ozlari va boshqalar pochta xodimlari tomonidan oluvchilarning manzillariga yetkazilib beriladi.

Elektron pochta (e-mail-electronic mail) oddiy pochta vazifasini bajaradi. U bir manzildan ikkinchisiga ma'lumot jo'natilishini ta'minlaydi. Uning asosiy afzalligi vaqtga bog'liq emasligida. Elektron xatlar jo'natilgan zahotiy oq manzilga boradi va egasi olguniga qadar uning pochta qutisida saqlanadi. Matnli xat, grafikli va tovushli fayllarni, programm fayllarni o'z ichiga olishi mumkin. Elektron xatlar bir vaqtning o'zida bir necha adreslar bo'yicha jo'natilishi mumkin. Internet foydalanuvchisi elektron pochta orqali tarmoqning turli xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi, chunki Internetning asosiy xizmat programmalari bilan interfeysga ega. Bunday yondashuvning mohiyati shundaki, xost-kompyuterga talab elektron xat ko'rinishida jo'natiladi. Xat matni zarur funksiyalarga kirishni ta'minlovchi standart yozuvlar to'plamidan tuziladi. Bunday axborotni kompyuter komanda sifatida qabul qiladi va bajaradi. Internet elektron pochta xizmatini ko'rsatadi. Elektron pochta nima? Elektron pochta maxsus programma bo'lib, uning yordamida siz dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron adresga xat, hujjat, va umuman ixtiyoriy faylni jo'natishingiz va qabul qilib olishingiz mumkin. Eng asosiysi xay bir zumda manzilga yetib boradi. Lekin undan foydalanish uchun siz maxsus pochta tarmog'i yoki Internet tarmog'iga bog'langan bo'lishingiz va elektron adresga ega bo'lishingiz kerak. Elektron adresni provayder beradi. Yoki Internetda bepul elektron pochta xizmatlari mavjud. Ular yordamida o'zingizga elektron adres ochishingiz mumkin. Quyidagi rasm orqali <http://www.mail.ru> sistemasi orqali pochta ochilishini ko'rishingiz mumkin. Uning uchun biz avval registrasiyadan o'tishimiz lozim. <http://www.mail.ru> sistemasi orqali "Регистрация в почте" bosamiz. natijada quyidagi anketalarni tuldirish lozim bo'ladi:

Регистрация - Microsoft Internet Explorer

Файл Правка Вид Избранное Сервис Справка

Назад Поиск Избранное Журнал

Поиск Знакомства Открытки Чаты Рассылки Жукки Путешествия Авто Все проекты

@mail.ru®

Регистрация почтового ящика

[Помощь по регистрации почтового ящика](#)

Символом * отмечены поля, обязательные для заполнения.

E-mail * @mail.ru

Пароль *

Повторите пароль *

Если Вы забудете пароль

Выберите вопрос * Ваше любимое блюдо

или укажите свой

Ответ на вопрос * osh

Доп. e-mail

Восстановление пароля

Вы можете выбрать любое имя, длиной не более 16 символов и состоящее из латинских букв, цифр, знаков подчеркивания ("_"), точек (".") или тире ("-") в любом из четырех доменов: Mail.Ru, Inbox.Ru, List.Ru или Bk.Ru. Имя не может начинаться с символа тире ("-"), точки (".") или знака подчеркивания ("_").

В пароле нельзя использовать кириллицу. Не выбирайте слишком простой пароль, его могут легко подобрать и воспользоваться вашим почтовым ящиком.

Если Вы забудете пароль, для его восстановления Вам нужно будет ответить на этот секретный вопрос. Выберите вопрос, ответ на который Вам легко запомнить, а другим - трудно подобрать.

альтернативный почтовый адрес используется при восстановлении пароля

Доп. e-mail

альтернативный почтовый адрес используется при восстановлении пароля

Дополнительная информация о пользователе

Имя *

Фамилия *


День рождения * 7 Август 2004

Ваш пол * ☐ Мужской ☒ Женский

Ваша страна *

Регион *

Защита от автоматических регистраций




Число на картинке * [Не вижу число](#)

Нажав на эту кнопку, Вы принимаете [условия пользовательского соглашения](#).


Интернет

Пуск Windows C... IATP Multid... Регистра... почта-1 - ...

Shundan so‘ng “Зарегистрировать почтовый ящик” tugmasi bosiladi. Agar biz tanlagan login oldindan registratsiyadan o‘tmagan bo‘lsa, togridan to‘gri pochta ochiladi. Aks holda boshqa login tanlash haqida ogohlantiradi:



Biz tanlagan loginimiz oldindan kiritilganligini eslatib boshqa login tanlashimizga ruxsat beradi. Shundan so'ng biz boshqa login tanlab "Зарегистрировать почтовый ящик" tugmasini bosamiz va natijada yangi elektron pochtaga ega bo'lamiz.



Demak, Siz internetda elektron pochtdan foydalanmoqchi bo'lsangiz mail.ru sistemasidan boshqa elektron pochta xizmat turlari mavjud. Bulardan- www.yahoo.com, www.yandex.ru, www.rambler.ru vahokozolar. Hozirgi kunda O'zbekistonda ham ko'plab serverlar xizmat ko'rsatmoqda (www.umail.uz, inbox.uz).

Pochta serverlari elektron pochta xabarlarini qabul qiluvchi va yuboradigan serverlardir. Elektron pochta xabarlarini qabul qiluvchi server POP (Post Office Protocol) protokolidan foydalanadi. Elektron pochta xabarlarini yuboruvchi server SMTP (Simple Mail Transfer Protocol) protokolidan foydalanadi.

Pochta serveri, elektron pochta serveri, pochta serveri - elektron pochta yoʻnaltirish tizimida bu odatda xabarlarni uzatish agentining nomi (ingliz pochta uzatish agenti, MTA). Bu xabarlarni bir kompyuterdan ikkinchisiga uzatuvchi kompyuter dasturi. Odatda pochta serveri "sahna ortida" ishlaydi va foydalanuvchilar boshqa dastur - elektron pochta mijosi (ingliz pochta foydalanuvchi agenti, MUA) bilan shugʻullanadi.

Elektron pochta manzili tuzilishi. Maʼlumotni yuborishda manzil juda katta ahamiyatga ega, xatni oluvchining manzili aniq boʻlishi lozim. Odatdagi pochta manzili maʼlum bir pochta boshqaruvi boʻyicha beriladi. Elektron pochta manzillarini loyihalash uchun mavjud qoidalar. Elektron pochta foydalanuvchilari oʻz elektron adreslariga ega boʻlib, uni Web-sahifa adresidan oson ajratish mumkin: <foydalanuvchi nomi>@<pochta serveri nomi>. Elektron pochta adresida albatta "@" ("tijoratdagi et" yoki boshqacha nomi "kuchukcha") belgisi qatnashadi, masalan: ismingiz Ibrohim boʻlsa, *ibrohimjon@mail.ru* yoki *ibrohim82@bk.ru* kabi manzillarni tanlashingiz mumkin. Xullas, pochta qutisining nomi avvalo yozish uchun qulay (ayniqsa, qoʻl telefoni klaviaturasida), esingizdan chiqib qolmaydigan, tushunarli, maʼno-mazmunga ega boʻlgan soʻz yoki jumla boʻlishi kerak.

VII.7. Talabalarning axborot madaniyatini shakllantirish.

Axborot jamiyatida yashashi kerak boʻlgan talaba samarali faoliyat yuritishi uchun nafaqat maʼlum bilimlarni, axborot faoliyatining usullari va texnologiyalarini egallashi, balki oʻz intellektual va ijodiy salohiyatini saqlash va rivojlantirish uchun axborot va axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishni ham oʻrganishi kerak.

Taʼlimni axborotlashtirish jamiyat hayotining boshqa sohalarini axborotlashtirishdan oldinda boʻlishi kerak, chunki bu sohada butun jamiyatni axborotlashtirish uchun ijtimoiy, psixologik, umumiy madaniy va kasbiy shart-sharoitlar yaratilgan. Dunyoqarashi keng, bilimdonligi, eng avvalo axborot madaniyatiga ega shaxs zamonaviy jamiyatda samarali axborot faoliyatini amalga oshirishga qodir. Zamonaviy jamiyatda shaxsning axborot madaniyatini eng samarali shakllantirish taʼlim tizimi orqali mumkin.

Butun umr bo'yi ta'lim g'oyasini amalga oshirish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy qarama-qarshiligini - zamonaviy dunyoda bilimlarning tez o'sishi va ularning cheklangan imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishga qaratilgan. Bu qarama-qarshilik ta'lim muassasalarini, eng avvalo, bilim olish, ma'lumot olish, undan zarur bilimlarni olish qobiliyatini shakllantirishga majbur qiladi. Biroq, buning uchun o'qituvchi nafaqat maxsus axborot bilimlari va ko'nikmalariga ega bo'lishi, balki ularni efirga uzatishga professional tayyor bo'lishi, madaniyatning alohida turini - shaxsning axborot madaniyatini shakllantirishi kerak. Shunday qilib, ta'lim muassasalari uchun axborot ta'limini tashkil etish va shaxsning axborot madaniyatini oshirish muhim vazifa bo'lib, o'qituvchilarning o'zlari axborot madaniyati darajasini real ravishda oshirish imkoniyati mavjud bo'lgan asosiy shaxslarga aylanadi. Axborot madaniyatini oshirish, aholiga milliy va jahon madaniyati boyliklaridan foydalanish imkoniyatini beruvchi yangi axborot texnologiyalarini joriy etish muammosi alohida ahamiyatga ega.

Talabalarning axborot madaniyatini shakllantirish jarayonining samaradorligi ilmiy xarakter, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik, tizimlilik, izchillik, ravshanlik, qulaylik, tabaqalashtirilgan yondashuv kabi yetakchi didaktik tamoyillarni amalga oshirish bilan belgilanadi.

Insonning axborot madaniyati inson madaniyatining bir qismi, ham o'qituvchi, ham o'quvchilarning ta'lim faoliyatining zaruriy bo'g'ini, ularning ta'lim faoliyatining bir qismi sifatidagi axborot faoliyatining sifat tavsifi.

Axborot madaniyati shaxsning axborot muhiti bilan o'zaro munosabatda bo'lgan bilimlari, qobiliyatlari, ko'nikmalari va reflektiv munosabatlari majmuasining mavjudligida namoyon bo'ladi. Axborot madaniyati axborot faoliyatiga qiziqishda, uning ta'lim jarayonlaridagi muhim rolini anglashda, axborot manbalarini ongli ravishda tanlashda va ularni qayta ishlash algoritmlariga ega bo'lishda, an'anaviy, elektron, tarmoq va boshqa ma'lumotdan kompleks foydalanishda namoyon bo'ladi.

Shaxsiy axborot madaniyati - shaxs umumiy madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri; ham an'anaviy, ham yangi axborot va texnologiyalardan foydalangan holda individual axborot ehtiyojlarini optimal qondirish uchun maqsadli mustaqil faoliyatni ta'minlovchi axborot dunyoqarashi va bilim va ko'nikmalar tizimi majmui. Bu kasbiy va noprofessional faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish, shuningdek, axborot jamiyatida shaxsni ijtimoiy himoya qilishning eng muhim omilidir. Axborot madaniyati tarkibiga quyidagi madaniyatlar elementlari kiradi:

- Kommunikativ (muloqot madaniyati);
- leksik (lingvistik, yozuv madaniyati);

- kitob;
- intellektual (ilmiy tadqiqot va aqliy mehnat madaniyati);
- axborot texnologiyalari (zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyati);
- axborot va huquqiy;
- g'oyaviy-axloqiy.

Talabalarning axborot madaniyatida uchta asosiy komponentni ajratib ko'rsatish mumkin:

- kognitiv (bilim va ko'nikmalar);
- hissiy qiymat(munosabat, baholash, munosabat);
- harakatga yo'naltirilgan(bilim va ko'nikmalardan real va potentsial foydalanish).

Talabalarning axborot madaniyatini shakllantirish jarayonining samaradorligi yetakchi didaktik tamoyillarni amalga oshirish bilan bog'liq:

ilmiy xarakter,

nazariyani amaliyot bilan bog'lash;

tizimli,

ketma-ketlik,

aniqlik,

mavjudligi,

tabaqalashtirilgan yondashuv.

Axborot madaniyati asoslarini shakllantirishdan asosiy maqsad talabalarning o'quv faoliyatida bilim, ko'nikma va axborot bilan o'zini-o'zi ta'minlashdan iborat.



Nazorat uchun topshiriqlar:

- 7.1.** Internet tarmog'i. Internetga bog'lanish usullari. Internetda manzil tushunchasi va uning turlari haqida gapirib bering.
- 7.2.** Web-saytlar va ularning turlari. Web-sahifa va uning tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
- 7.3.** Web brauzer dasturlari va ularning imkoniyatlari. Internet tarmog'i qidiruv tizimlari. Axborotlarni qidirish usullari nimalardan iborat.
- 7.4.** Internet tarmog'i qidiruv tizimlari. Axborotlarni qidirish usullari haqida nimalarni bilasiz?

- 7.5.** Internet axborot terurslari. Giberbog‘lanish qanday amalga oshiriladi?
- 7.6.** Domen tushunchasi nima?
- 7.7.** Domen olish jarayoni haqida gapirib bering.
- 7.8.** Internet xizmatlari. Mobil internet texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?
- 7.9.** Elektron pochta xizmati. Pochta serverlari va mijozlar, qayd yozuvi va elektron pochta manzili qanday foydalaniladi?
- 7.10.** Talabalarning axborot madaniyatini shakllantirish qanday amalga oshiriladi?